

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

## TIBBIYOTDA LOTIN TILI: RIM ISMLARI VA MAZMUNI

**M. Muhammadiyeva***Qarshi davlat universiteti Tibbiyot fakulteti davolash  
va pediateriya kafedrasi katta o'qituvchisi***Yorqulova Umida Hamza qizi***Qarshi davlat universiteti Tibbiyot fakulteti  
Dayolash ishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada lotin tilining paydo bo'lishi va uning tibbiyotdag'i ahamiyati, shuningdek, rim ismlari va ularning mazmuni haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Lotin tilining ko'lami va mazmuni qanday ko'rinishga ega ekanligi bayon qilingan. Biz talaba yoshlarning tibbiyot sohasini muvaffaqiyatli o'zlashtirishimiz uchun bиринчи qadam bu – Lotin tili va tibbiy atamalardir.

**Kalit so'zlar:** lotin tili, tibbiyot, olimlar, rim ismlari, atamalar, iboralar, anatomik terminlar.

Lotin tili juda qadimdan paydo bo'lgan. Ushbu til hindyevropa oilasining italyan guruhiga taalluqlidir. Ilgari bu tilda- Italiya markazidagi Latsiya orolida yashovchilar, shuningdek, qadimgi Rimda yashovchilar va miloddan avvalgi I asrda Apenin yarim orolida Rimning italiya qabilalari hukmronligi ostidagi urug'lari so'zlashgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili Rim regionlari bilan qadimgi madaniyat o'choqlari bo'lmish – Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va boshqalarga hamda Yevropaning o'sha davrda madaniyati kam taraqqiy etgan qabilalariga kirib boradi. Astasekin lotin tili territoriyasi hozirgi Ruminiya va Portugaliya yerlarini ham egallagan ulkan Rim imperiyasining hukmron tiliga aylandi. Lotin tili "o'lik til" deb hoiblanishiga qaramay ,zamonaviy dunyoda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlari shifokorlariga bir-birlarni osongina tushunish imkonini beradi. Lotin tilini tibbiyotda qo'llash dunyo shifokorlari va tibbiy ta'limni birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy terminologiyada lotin tilining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Islom dunyosining eng buyuk mutafakkiri **Abu Ali Ibn Sino**(980-1037) ning "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga o'girilib, qariyb XVI asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelingan. Yirik italyan anatomi **Andrey Vezaliy** (1514-1564) lotin tilida o'zining "De humani corporis fabrica" – "Inson tanasining tuzulishi" nomli klassik asarini yozdi. Lotin tilida Yevropa mamlakatlarining atoqli mutafakkirlari, olimlari,faylasuflari: M.Malpigi, I.Nyuton, R.Dekart, N.Kopernik, K.Linney va boshqalar o'zlarining asarlarini yozib qoldirgan.

Tibbiyotda lotin tili an'anaviy ravishda anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiyada qo'llaniladi.



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Anatomik atamalar:** Inson tanasining barcha a'zolari va qismlari lotincha nomlanadi. Masalan: jigar-hepar, taloq-lien, buyrak-ren, halqum-pharynx, qizilo'ngach-esophagus va hokazo.

**Klinik atamalar:** kasallik nomlari, kasallik belgilari, patologik jarayonlar, operatsiya nomlari, davolash usullari, tibbiy uskunalar, asboblar ham lotincha nomlanadi. Masalan: churra-hernia, rak-carcinoma, ich terlama-typhus abdominalis.

**Farmatsevtik atamalar:** o'simliklardan va kimyoviy moddalardan tayyorlangan dori-darmonlar nomi ham lotincha nomlanadi. Masalan: kofein-coffeinum, vazelin-vaelinum, malham-emplastrum, kanakunjut moyi-oleum ricini, dibazol-dibazolum, novokain-novshadil spirti-solutio ammonii.

Lotin tilida Rim ismlari va ularning mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Rimliklar odatda bizda bo'lgani kabi uchta ismga ega edilar-ism, otasining ismi va familiyasi.

Ism-prenomen

Ikkinchchi ism-nomen

Uchinchi ism-kognomen

To'rtinchchi ism-agnomen

O'sha davrning mashhur maqoli bu-Ism oshkor etilmaydi!

Rimliklar oz sonli shaxsiy ismlardan foydalanganlar. Shaxsiy ismlar deyarli har doim yozuvlarda qisqartirilgan. Eng keng tarqalgan praenomina: DEC/Decimus; AVL/Aulus; TIB/Tiberius; CN/Gnaeus; L/Lusius; T/Titus; P/Publius; Q/Kvint.

Noyob praenomina odatda to'liq yozilgan: Agriptra, Ancus, Annius, Aruns, Atta, Cossus, Denter, Eppius, Faustus, Fertor, Herius, Hospolis, Hostus, Lar, Marius, Mesius, Mettus, Minatius, Minius, Neron, Novius, Numa, Opiter, Opiavus, Ovius, Pacvius.

Jinoyatchining shaxsiy ismi u mansub bo'lgan jinsdan butunlay chiqarib tashlanishi mumkin edi; shu sababli Klavdiylar oilasida Lutsiy nomi, Manlievlar oilasida Mark nomi ishlatalmag'an.

Yangi tug'ilgan erkak avlodlariga kelsak, odatdagidek, to'ng'ich o'g'il otasining ismi bilan atalgan. Keling, to'g'ridan-to'g'ri o'g'il bolalarning qadimgi rim ismlarining o'ziga xos variantlariga va ularning qisqacha tavsifiga murojaat qilaylik.

**Oyat-sirli, mulohazali;** **Lentulus**-sekin, bo'sh harakat qilish; **Agelast**-ma'yus zerikarli; **Lenat**-muqaddas qilinuvchi; **Eburn**-katta kuchga, qat'iylikka ega; **Pulchr**-ko'rkm, dabdabali; **Kato**-o'zini ayyor, ahmoqona tutadigan; **Metellus**-erkinlikni juda yaxshi ko'radigan; **Brutus**-tor fikrli, qo'pol; **Margarit**-marvaridga o'xshash qimmatbaho metal ma'nolarini anglatgan.

Varro-qiyshiq oyoqlari bor ma'nosidagi ism.

Qiyshiq oyoq----(obliquus pedis)


Nazon-katta burun egasi.

Katta burun----(nasus magnus)

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**




1-rasm.



2-rasm.

Silon-qiyshiq burunga ega.  
Qiyshiq burun----(nasus obliquus)



3-rasm.

Dentant-chiroyli tishlari bor.  
tish-----(dens)



4-rasm.

Yangi tug'ilgan qizga otasining familyasi shaxsiy ism sifatida berilgan. Rimda ayollar ismlari va ular nimani anglatishiga to'xtalib o'tamiz. **Lucrezia**-xuddi shu nomdag'i nasldan, foya keltiradigan qiz. **Serviliya**-shu nomli nasldan, kuzatuvchi, qo'riqchi. **Kassiya**-xuddi shu nomdag'i nasldan, uning ichida bo'shliq bor ma'nosida. **Sessiliya**-sesiliya qonidan, uning ko'zlarini ojiz. **Klaudiya**-oqsoqlanadigan ma'nosida. **Ticinia**-qo'ng'iroq qiluvchi, kuzatuvchi.

Flaviya-oq, jingalak sochli qiz.  
oq-----(albus)



5-rasm.

Rufiya-qizil sochli qiz.  
qizil-----(ruber)



6-rasm.

Qullar kelib chiqishi bilan : Ser (suriyalik), Gallus (galliyalik), Friks (frigiyalik); afsonaviy qahramonlar nomi bilan: Axilles, Gektor; o'simliklar va toshlarning nomlari: Adamant, Sardonik va boshqalar. Ba'zida qullarga genitativ holatda egasining ismi berilgan: Marzipor ya'ni Markning quli.



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa qilib aytganda, Lotin tili tibbiyotning eng asosiy tayanchi hisoblanadi. Anatomiya, gistologiya, farmasevtika sohalarida lotin tili yaqqol ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot sohasida bilim va ko'nikmalarimizni rivojlantirish, dunyoqarashimizni kengaytirish, malakali kadr bo'lismiz uchun ajoyib imkoniyatlarni biz yoshlarga taqdim etadi. Lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsada, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Hozirgi kunda nafaqat tibbiyot, balki, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlarida ham qo'llanilib kelmoqda.

*Invia est in medicina via sine lingua Latina!*

Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamova S. Sh, Saydullayeva M.A, Abdullayeva R.M. "Lotin tili va tibbiy terminologiya". Darslik. Toshkent. 2017-yil.
2. Xo'jayeva L.U, Zohidova X.A, Rahmatullayeva Z.Z." Lotin tili". Darslik. Andijon. 2005-yil.
3. Turdiyeva K, Hamraqulova M, Berezovskaya R, Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent 2016-yil.
4. Hamroqulova M, Turdiyeva K, Berezovskaya R, Mahkamov M. Tibbiy terminologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent 2018-yil.

